

## QUR'ONI KARIM MATNINI SHARHLASHDA ZOHIR VA BOTIN MASALASI

Мамадалиев Мухсин Сайдазимович

Ўзбекистон халқаро ислом академияси 24.00.04 – Мумтоз шарқ адабиёти  
ва манбашунослиги 3 босқич докторант

[afeefa2018@mail.ru](mailto:afeefa2018@mail.ru)

Tilshunos olimlar har bir tilda bitilgan shoh asarlarning til xususiyatlarini chuqur o'rganish o'sha tilning rivojida muhim ahamiyatga ega ekani doim ta'kidlanadi. Arab tili mutaxassislarining Qur'oni karim matnini anglash va sharhlashda undagi nafaqat til xususiyatlari, balki e'tiqod masalasiga aynan bog'liq bo'lgan mavzularning yoritilishidagi ifoda uslublarini teran tadqiq qilish kerakligiga alohida urg'u beradilar. Ana shunday jihatlardan biri Qur'oni karim oyatlari matnidagi zohiriy va botiniy ma'nolar masalasidir.

Lug'aviy jihatdan "zohir" so'zi "botin" so'zining aksini anglatadi. Shu ikki o'zakdan olingan boshqa so'zlar ham bir-biriga antonim hisoblanadi. Masalan: "zohir" (ظهر) so'zidan insonning orqa tomoni – gardani, ya'ni bo'ynining orqa tomonidagi suyagidan bel qismigacha bo'lgan joyi tushunilsa, "batn" (بطن) so'zi o'shaning aksi – ichki muqobil tarafini ifodalaydi.

Ushbu "zihora" (ظاهرة) so'zi kiyimning ustki tarafini anglatasa, "bitona" (بطانة) so'zi esa, uning aksi bo'lib, kiyimning ichki tarafini, badanga tegib turadigan astar qismini ifodalaydi. ظهر feli biror narsa ustida namoyon bo'lmoqni bildiradi. Masalan Tavba surasi 8-oyatda

فَاسْفُوهْ وَ أَكْثِرْهُمْ فُلُوبُهُمْ وَ تَأْتِي بِأَفْوَاهِهِمْ يُرْضُونَكَ ذِمَّةً وَ لَا إِلَّا فِيكُمْ يَرْفَبُوا لَا عَلَيْكُمْ يَطْهَرُوا وَإِنْ كَيْفٌ<sup>93</sup>

Lug'aviy jihatdan "agar ustingizda zohir bo'lsalar" degani, sizlardan xabardor bo'lsalar mazmunini bildiradi.

"Batona" feli yuzaga chiqish emas, ichkariga kirishni anglatadi. Masalan: الوادية بطن – vodiyning ichiga kirdi degani. Istelohiy jihatdan zohir va botin so'zlari quyidagi ma'nolarda kelgan:

Abdulloh ibn Mas'uddan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh sollohu alayhi vassallam "Qur'on yetti harfda nozil qilindi, ulardagi har bir oyatning zohir bo'lgan va botin bo'lgan jihatlari bor", dedilar. Mutaxassislar ishbu hadisdagi zohir va botin so'zlarini quyidagicha sharhlagan:

Ibn Asir: Zohir – "bayoni oydin bo'lgan", botin – "tafsirga ehtiyoj sezilgan" deb sharhlagan.

Ibn Manzur "Liston-ul arab"da "zohiri uning lafzi, botini esa ma'nosi" deb kelgan.

Bundan tashqari "zohir – ta'vili zohir bo'lgan", "botin – tafsiri botin bo'lgan matn" deb ham izohlangan.

Jaloliddin Suyutiyning "Al-itqon fi ulum il-Qur'on" asarida "zohir bu tilovatning zohiri, botin esa Allohning murodini fahmlash", deb kelgan.

Chunki Alloh ta'olo Niso surasi 78-oyatida:

أَيْنَمَا تَكُونُوا يُدْرِكْكُمُ الْمَوْتُ وَلَوْ كُنْتُمْ فِي بُرُوجٍ مُّشِيدَةٍ ۗ وَإِنْ تُصِيبْهُمْ حَسَنَةٌ يَقُولُوا هَذِهِ مِنْ عِنْدِ اللَّهِ وَإِنْ تُصِيبْهُمْ سَيِّئَةٌ يَقُولُوا هَذِهِ مِنْ عِنْدِكَ ۗ قُلْ كُلٌّ مِنْ عِنْدِ اللَّهِ ۗ فَمَالِ هَؤُلَاءِ الْقَوْمِ لَا يَكَادُونَ يَفْقَهُونَ حَدِيثًا<sup>94</sup>

<sup>93</sup> Tavba surasi, 8-oyat.

<sup>94</sup> Niso surasi, 78-oyat.

*Qayerda bo'lsangiz ham, hattoki, mustahkam qal'alarda bo'lsangiz ham, o'lim siznari topadi. Agar ularga yaxshilik yetsa, "bu Allohdan", derlar. Yomonlik yetganda esa, "bu sendan" derlar. "Hammasi Allohdan" deb ayt! Anavi qavmlarga nima bo'ldiki, gapni tushunay demaydilar?!*

“Gapni tushunmaydilar” degani “Allohning xitobini tushunmaydilar” mazmunida aytilgan. Ya'ni “xitob qilingan gapning o'zini tushunmaydilar” degan ma'no ko'zlanmagan. Negaki, xitob ularning tilida nozil bo'ldi. Shuning uchun “undan ko'zlangan mazmuni fahmlamaydilar” degan ma'no nazarda tutilgan.

Ma'noning zohiri o'sha til ahli biladigan narsa bo'lib, ular arablardir. Ammo xitobning zohiridan boshqa, uning tagida ko'zlangan murod esa, botinidir. Albatta, u Alloh taolo huzuridan va tadabbur hosil bo'lsa, Qur'onda aslo ixtilof qolmagan bo'lardi.

Beshinchi ta'rifga ko'ra, “botinni qidirsang va uni zohirga qiyoslasang, ma'noga yetishasan” deyilgan. Oltinchi ta'rifda esa, “biror oyat yo'qki, albatta, bir qavm unga amal qilgan va unga kelajakda amal qiladigan qavm ham bordir” deb izoh berilgan. Yana bir ta'rifga ko'ra, “Alloh taolo o'tgan ummatlar va ular topgan uqubatlar haqidagi qissalarni hikoya qilishi bu oyatlarning zohiri bo'lib, oldingilarning halok bo'lgani haqida xabar berilgan. Botinida esa, boshqa qavmlarni va z-nasihati qilgan va ularni avvalgilar qilgan ishni qilishdan qaytargan hamda ularga tushgan uqubatga duchor bo'lishdan ogohlatirgan”, deyiladi. Jaloliddin Suyutiy nazdida ham mana shu ta'rifning to'g'riligida ehtimol ko'proq.

Sakkizinchi ta'rifga ko'ra, oyatlar ma'nolarining zohirni biladigan ahli ilmga ma'lum bo'lgan qismidir, botini esa haqiqat ahillarigagina Alloh ma'lum qiladigan asrorlaridir. Zohir deganda arab tilidagi lafzdan olinadigan fahm bo'lsa, botin Allohning xitobidan ko'zlangan ma'no bo'lishi ham mumkin.

Yana aytiladiki, zohir bu iymon keltirish va uning taqazosiga ko'ra amal qilish ka'bi mukallaflar barobar bo'ladigan ma'nolarni anglash. Botin esa, aql va fahmlardagi martabaga muvofiq ravishda bandalar orasida ilohiy xitobni anglashdagi tafovutga ko'ra voqe' bo'ladigan darajadir. Albatta, bandalarning oyatlarni tushunishdagi ilmu ma'rifatlari turlicha mavqedadir. Shu sabab har bir idrok egasi o'z idroki yetib borgan miqdor qadar mas'uldir.

Keyingi ta'rifda aytilishicha, zohir butun ummatga qilingan xitobdir. Botin esa, faqat xoslarga hujjat keltiradi.

Yuqoridagi ta'riflardan quyidagi mulohazalarni olish mumkin. Birinchi o'tgan ta'riflar garchi zohir va botin kalimalarining ma'nolarini belgilashda bir-birdan farq qilgan bo'lsada, ammo zohir va botinning har ikkisiga birdek amal qilish vojibligida ixtilof yo'q.

Ikkinchidan, botinni fahmlash va unga yetishishdagi yo'l, shubhasiz, zohir bilansiz amalga oshadi. Uchinchi, zohir va botin orasidagi aloqa bu o'zaro muvofqlik va bir-birini to'ldirishdan iborat. Botin zohirga muhtojdir, zohir ham botinga muhtoj. Ular ikkisidagi aloqa bir-biridan o'zga, bir-biridan qochadigan ma'nolar emas. Zohir va botinni idrok qilish o'rganuvchning tayyorgarligiga, Qur'on oyatlarini mulohaza qilish quvvatiga bog'liq.

Qur'oni karim oyatlarining zohiri asliy ma'nolar bo'lib, ular voqe'likda ochiq-oydin ma'lumdir. Ular (zohir oyatlar va voqe'lik) orasiga tafovut yoki xilof tushish ehtimoli juda kam. Unda arab ham, ajam ham, hazariy ham, badaviy ham, dono ham, nodon ham barobardir. Ularning doirasi tor va ufqi cheklangan.

Shuningdek, Qur'oni karimning nazmi ikkilamchi ma'nolari etiboriga ko'ra (aqidalar, hukmlar, odoblar va dalillar ka'bi) hidoyatning turli shakllariga dalolat qiladi. Garchi odamlar ushbu ikkilamchi ma'nolar daqiq va nozik uslubda berilgani sababli ularni idrok etishda qobiliyatlari turlichaligiga ko'ra farqlansalar ham, ana shu daqiq va noziklikka ko'ra ularni anglovchilar orasidagi tafovutning sohasi ham kengdir. Qur'onning Qur'onligi, uning o'zgachaligi ikkilamchi ma'nolari bilan bog'lanadi hamda ana shu ma'nolardan olinadigan foydalar asliy-zohiriy ma'nolardan olinadigan foydalardan ko'proqdir. Chunki, ikkilamchi ma'nolar mavj urib turgan dengiz kabidir. Unda Allohning ilmu hikmati, ilohiy buyukligi uni fahmlash qobiliyati berilgan bandalari uchun namoyon bo'ladi. Aynan mana shu tur botindir.

Qur'on ilmlari xoh botiniy bo'lsin xoh zohiriy bo'lsin, o'zaro sharafda farq qilsa ham, e'tibori jihatidan barobardir. Ularning sharafda farqlanishi biri ikkinchisini bekor qilishiga yoki tark qilishiga yoxud inkor qilishiga olib kelmaydi. Albatta, ilmlar nimani o'rganishiga ko'ra sharafda tafovut qiladi. Ma'lumotlarni (ya'ni bilinadigan narsalarni) eng sharafisiga taalluqli bo'lgan ilmlar ilmlarning eng sharaflisi hisoblanadi. Shak-shubha yo'qki, mavzusi ilohiy ma'rifat bo'lgan ilm harflar va shakllarni mavzu qilgan ilmdan afzaldir. Nafsni poklash, u bilan bashariyat taraqqiyotlarini yuqori darajalariga yetishishni bahs qiladigan ilm, albatta, jinoyatlar, hayz va nifoz hukmlari kabi mavzuni o'rganadigan ilmdan sharaflidir. Qur'on bu ilmlarning har birini olib kelgan va har biriga amr qilgan. Ulardan birortasini e'tiborsiz qoldirish yoki tark qilish, bepisandlik bilan qarash joiz emas. Chunki bu narsa Alloh taoloning g'azabini keltiradigan ma'siyatdir. Natijada insondan dunyoviy manfaatlar ketib qolishi bilan bilan birga ilmning oliy manfaatlari ham nasb qilmaydi.

Qur'oni karim bu kabi bayoniy xususiyatlarga boy. Ayniqsa, balog'iy tafsirlar ushbu ilohiy kitobning ifoda usullarini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, Qur'oni karimni tafsir qilish, sharhlash hech bir zamonda oxiriga yetib, batamom komil bo'lmaydi, balki yangi qirralari ochilishda davom etadi.

### **ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Qur'oni karim.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Qur'oni karim ma'nolar tarjimasini". - Toshkent, "Hilol" nashriyoti, 2019.
3. Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasini. - Toshkent: TIU, 2018. -618.
4. Abu Mansur Moturidiy. Ta'vilatul Qur'an. M.Bosallam tahriri. - Bayrut, Dorul kutubil iomiyya, 1971.